



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Hafizova Muxlisa¹

¹O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti
E-mail: abbos.a_1990@mail.ru
Tel: 97 738 93 94

ERKIN VOHIDOV IJODINING BOSHLANISHI VA SHAKLLANISHIDAGI ASOSIY ADABIY MAKTABLARNING AHAMIYATI

***Annotatsiya:** Maqolada Erkin Vohidov ijodining shakllanishida “G‘ayratiy maktabi”ning roli va ahamiyati haqida ko‘rsatib beriladi.*

***Tayanch so‘zlar:** ijod, shakllanish, she‘riyat, ijod maktabi, to‘garak.*

ЗНАЧЕНИЕ ОСНОВНЫХ ЛИТЕРАТУРНЫХ ШКОЛ В НАЧАЛЕ И СТАНОВЛЕНИИ РАБОТЫ ЭРКИНА ВОХИДОВА

***Аннотация:** В статье показана роль и значение “Школа Файратий” в становлении творчества Эркина Вахидова.*

***Ключевые слова:** творчество, образование, поэзия, школа творчества, кружок.*

THE IMPORTANCE OF THE MAIN LITERARY SCHOOLS IN THE BEGINNING AND FORMATION OF ERKIN VOKHIDOV'S WORK

Annotation: The article shows the role and importance of the “School of G‘ayratiy” in the formation of Erkin Vahidov's work.

Keywords: creativity, formation, poetry, school of creativity, circle.

Kirish (Introduction). Ma'lumki, har bir shoir yoki yozuvchining adabiyot olamiga kirib kelishi va ijodining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar bo'ladi. O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovni adabiyotga yaqin oilada tug'ilgan, deb bo'lmaydi. Shuning uchun ham uning adabiyot maydoniga kirib kelishi va ijodining shakllanishida bir necha omillar muhim rol o'ynagan. Shunday omillardan biri va birinchisi “G‘ayratiy to‘garagi” ijod maktabidir. G‘ayratiy – XX asrning 20-yillarida ko‘p millatli sho‘ro adabiyotida mafkuraviy kurash avj ola boshlagan davrda o‘zbek adabiyotiga dadil kirib kelgan va shu yillardan boshlab zamonaviy mavzulardagi she‘r va dostonlari bilan shuhrat qozongan shoir. U hatto yozuvchilardan ishchilar sinfiga yaqin bo‘lish va ular hayotidan asarlar yozish talab etilgan 1928-1931-yillarda “Toshselmash” zavodiga ishga kirib, ishchilar hayotini puxta o‘rgangan va “Sexlar kitobi” seriyasida bir necha asarlar yozgan. “G‘ayratiy nomini tilga olar ekanmiz, – deb yozgan edi Uyg‘un, – o‘zbek sovet adabiyotining tug‘ilishi, rivoji, balog‘ati ko‘z oldimizga keladi. G‘ayratiy adabiyotimizning o‘sish yo‘lida ro‘y bergan murakkab kurashlarda faol qatnashdi” [1,7].

G‘ayratiyning adabiy bilim doirasi Avloniy, Hamza va Ayniyning shu yillarda yaratgan asarlari hamda Mannon Uyg‘ur rahbarligidagi Karl Marks teatr truppasining spektakllari bilangina chegaralanib qolmagan. 1902 yili Toshkent shahrining Degrez mahallasida G‘.G‘ulomdan bir yil avval tug‘ilgan G‘ayratiy usuli jadid maktabini tugatgach, shu mahalladagi madrasaga kirib, arab, fors adabiyotini o‘rgana boshlagan. “Klassik yozuvchilardan, - deb yozgan u “Qisqacha avtobiografiya” degan maqolasida, - Sa‘diy, Navoiy, Fuzuliy, Muqimiy va Furqatlarning nodir asarlarini sevib o‘qidim” [2, 231].

Yangi o‘zbek adabiyotining Fitrat, A.Qodiriy, Cho‘lpon va Hamzadan keyingi namoyandalaridan biri G‘ayratiy o‘tgan asrning 40-yillarida tuhmatga uchrab, ozodlikdan mahrum etiladi. Urush yillarida Toshketga ko‘chib kelib, G‘ayratiy xonadonidan panoh topgan rus yozuvchilaridan biri uni millatchilikda ayblab, sobiq Ittifoq Yozuvchilar uyushmasi a‘zolidan o‘chirilishi va qamoq jazosiga mahkum etilgan. Shoir ikki yillik qamoq muddatini o‘tab kelganidan keyin ham unga adabiyot maydonida ishlash imkoniyati berilmagan. Urush yillarida o‘z yurtini tashlab qochishga majbur bo‘lgan, urush mashaqqatlarini boshidan kechirib yashayotgan o‘zbek oilasining unga ko‘rsatgan muruvvatiga shunday razillik va nomardlik bilan javob bergan rus yozuvchisining ism-sharifi, afsuski, aniq emas. Ammo G‘ayratiyning qizi filologiya fanlari nomzodi D.Abdullaevaning yozishicha, uning familiyasi S.Rodov bo‘lgan. “G‘ayratiy, - deb yozgan u o‘z maqolasida, - o‘z zamonasidagi nohaqliklar qurboni bo‘ldi, bu davrda uning insoniy va ijodiy taqdiri zavol topdi. ...Shoir G‘ayratiy 1941-yilda respublikaga vaqtincha ko‘chib kelgan va bizning xonadonimizga joylashtirilgan moskvalik S.Rodovning xudbin maqsadni ko‘zlab, NKVDga “millatchi” deb yozgan tuhmatnomasi natijasida hibsga olingan. Bu tuhmat asossiz ekanligi ayon bo‘lgandan keyin qamoqdan bo‘shatilgan, biroq o‘sha davr taqozosi bilan kechagina “Onamga xat”, “Jinasta” poemalari haqida og‘iz ko‘pirtirib gapirgan safdoshlarining ko‘pchiligi undan yuz o‘girishgan. 1934- yilda birinchilar qatorida sobiq Ittifoq Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi bo‘lgan otamiz 1941-yilda bu ijodiy tashkilotdan chiqarildi, asarlari uzoq muddat davomida matbuotda bosilmadi” [3, 3]. Yana shu muallif ustozini Laziz Qayumov haqidagi “Saxiy inson” degan maqolasida: “Bu yillar bizning oilamiz uchun og‘ir kechdi. Otamning asarlari hech qaerda chop etilmadi. 1953-yilgacha davlat idoralarida ishlashga haqqi yo‘q edi”, - deb yozgan [4, 179].

G‘ayratiy sho‘ro davrida tez-tez sodir bo‘lib turadigan adolatsizliklardan gandarab qolmay, shunday vaziyatda o‘zi bajarishi mumkin bo‘lgan ishlardan biri – yosh shoirlar bilan hamkorlik qilish, ularga o‘zining va qalamkash birodarlarining ijodiy tajribalaridan kelib chiqqan holda yo‘l-yo‘riqlar berish, ustozlik qilish yukini o‘z zimmasiga oldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). E.Vohidov ijodi XX asr adabiyotining taraqqiyot tamoyillari va o'ziga xosliklari, janriy takomili, yetakchi namoyandalari va asosiy asarlari adabiyotshunoslikda turlicha yo'nalishlarda birmuncha o'rganilgan, jumladan, ushbu adabiyot taraqqiyotining turlar, janrlar va alohida ijodkorlar faoliyati nuqtai nazaridan tadqiq etilgan, jumladan, Sh.Sent-Byov, A.Morua, V.Bursoy, A.Velik, I.Andronikovalarning monografiya, risola, dissertatsiya, darslik va o'quv qo'llanmalari yaratilgan. D.Quronov, B.Karimov, N.Ziyodullaeva, S.To'laganovalarning dissertatsiyalarida ijodkor laboratoriyasi masalasi ma'lum darajada o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning fan, madaniyat va ma'naviyat masalalariga bag'ishlangan asarlari tadqiqot uchun metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, Izzat Sultonning "Adabiyot nazariyasi" hamda O'zR Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti olimlari tomonidan yaratilgan XX asr o'zbek adabiyotiga doir asarlari tadqiqot ishning nazariy asosini belgilab beradi. Shuningdek, O.Sharafiddinov, S.Ahmad, M.Qo'shjonov, O.Madaev, N.Karimov, G.Vohidova, N.Vladimirova, M.Yunusov, U.Normatov, I.G'afurov, A.Ulug'ov, U.Hamdani, B.Karim, A.A'zam tadqiqotlarida ham Erkin Vohidov ijodiga muayyan munosabat bildiriladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). G'ayratiy to'garagi ochilgan 1951-1952 yillarda oltinchi-yettinchi sinf o'quvchisi bo'lgan E.Vohidov to'garak haqida shunday yozgan edi: "Pionerlar uyida G'ayratiy domla boshqargan adabiyot to'garagiga qatnashganman. Bizning to'leimiz bo'lib o'sha vaqtda domla shu to'garakka kelib qolgandilar. Xayriddin Saloh, Yusuf Shomansur, Sayyor, To'lqin, Tamilla, Matluba... bu do'stlarimiz bilan biz she'rlar yozib, bir-birimizning asarlarimizni muhokama qilib, mana shu guruhda o'sganmiz. Shuni aytmoqchimanki, shoirlar hamisha bir adabiy muhitdan kelib chiqadi. Albatta, to'garak o'zichalik shoir yoki yozuvchini yetishtirib chiqarmaydi. Chunki to'garakda ham to'garak bor, muhitda ham muhit bor" [5, 161].

Har qanday iste'dod muayyan ijodiy muhitda o'sib-shakllanib, o'z yo'lini

topib boradi. E.Vohidov yoshlik chogʻidan boshlab Gʻayratiy rahbarlik qilgan adabiy muhitda oʻsdi. Gʻayratiyning XX asrning 20-30-yillar oʻzbek adabiyoti va shu yillarda ijod qilgan oʻzbek yozuvchilari haqidagi, shuningdek, urush yillaridagi qaynoq adabiy jarayon haqidagi suhbatlarini jon qulogʻi bilan eshitdi. Ustozning Oybek, Gʻafur Gʻulom, Uygʻun, Shayxzoda singari yozuvchilarning badiiy mahorati haqidagi kuzatishlari unga, ayniqsa, manzur boʻldi.

Toshkentdagi N.Ostrovskiy nomidagi pionerlar saroyida, - deb yozgan edi toʻgarak qatnashchisi Yusuf Shomansur, shoir Gʻayratiy rahbarlik qilgan adabiyot toʻgaragi yigirma yillik sinovdan oʻtdi. Endilikda toʻgarakning sobiq aʼzolari adabiyotimiz navqiron avlodining oʻzagi boʻlib qoldilar. E.Vohidov, X.Saloh, Sayyor, Toʻlqin, A.Eshonov, A.Isroilov, T.Qosimova kabi tanilgan shoir va yozuvchilarimiz shu toʻgarakdan chiqqanlar.

“Oddiy bir toʻgarakning shunchalik maqomi nimada edi? Oʻylashimcha, avvalo gap ustoz Gʻayratiyning havaskordan havaskorni farq qila bilish iqtidorida. U kishi dilida talant uchquni boʻlmagan biror havaskorni shoir qilib qoʻygani yoʻq. U yoshlarning oʻzida bor iqtidorning yuzaga chiqishiga yordam berdiki, shuning oʻzi katta sanʼatdir... ..Bizning toʻgaragimizda oʻqilgan biror yaxshi satr zoe ketmasdi. Zarrama-zarra bilim olib, ulgʻayardik. Yoʻldoshev degan doʻstimiz (ismini eslolmadim) oʻzi ancha boʻshtob boʻlsa ham, bir kuni tuzukkina sheʼr yozib keldi. Bu uning birinchi va oxirgi sheʼri ekanligini keyin bildik. Shunga qaramay, domla shu sheʼrni matbuotga tavsiya etdi. Sheʼr bosildi, hatto kattagina tarjimon tarjimasida “Murzilka”¹ da ham chiqib ketdi. Bu oʻrinda domla xato qilmadimikan? Ustoz buni umid bilan qilgan edi, sinab koʻrdi, afsuski, doʻstimiz sinovdan oʻtolmadi. *Biz domladan mana shunday olijanoblikni, halollikni oʻrgandik* (taʼkid bizniki – M.H.). Havaskorning ijodkor boʻlib yetishuvida bu hal qiluvchi omillardandir” [6, 19].

E.Vohidov shunday mashgʻulotlar taʼsirida, oʻsha yillardagi ruhiy olamida joʻsh urgan his va tuygʻularni ifodalab, shunday yozgan edi:

¹ “Murzilka” – shoʻrolar davrda Moskvada bolalar uchun rus tilida chiqarilgan rasmiy jurnal.

*Men jilg‘aman,
Daryo bo‘lib to‘lgim keladi.
Ona yurtim,
Senga o‘g‘lon bo‘lgim keladi.
Bugun senga
Faqatgina she‘r bag‘ishladim.
Kerak bo‘lsa,
Jonni fido qilgim keladi [7, 6].*

1953-yilda yozilgan yosh ijodkorning vatanparvarligi yorqin ifodalangan bu she‘rda Vatan uchun jonini ham fido qilishga tayyor lirik qahramon obrazi shunday tasvirlangan ediki, uning Vatan manfaati yo‘lida qurbon bo‘lishga ham tayyor ekanligiga ishonmay iloj yo‘q edi. Bu tasvir samimiyligi, bevosita shoir qalbidan sizib chiqqanligi bilan nafaqat mashg‘ulot qatnashchilarini, balki ustozning o‘zini ham maftun etgan. Bunday she‘r muallifining yaqin yillar ichida katta shoir bo‘lib ulg‘ayishiga ishongan ustoz E.Vohidov ijodiga alohida e‘tibor beradigan, uning “ijodiy sukut” va “ijodiy ta‘til”ga chiqmasligi uchun qayg‘uradigan bo‘ldi.

G‘ayratiyni o‘zining birinchi ustozini deb bilgan shoir uchun to‘garak tom ma‘noda “G‘ayratiy maktabi”ga, G‘ayratiyning o‘zi esa to‘garak a‘zolarining otasiga aylana boshlaydi. “Bu nuroniy, vazmin, muloyim, mehribon ustozning siymosi mening ko‘z oldimdan sira ketmaydi, – deb yozadi E.Vohidov “G‘ayratiyni eslab” degan maqolasida. U bizning ilk ibtidoiy mashqlarimizni diqqat bilan eshitar, avval o‘rtoqlarimizning fikrini so‘rar, oxiri o‘zi yakun yasab, yozganlarimizning yutuq va kamchiliklarini ko‘rsatar edi. *Bu bilan ustoz bizni faqat she‘r, hikoya yozishgagina emas, har bir asarning badiiy qimmatini haqida fikr qilish, bu fikrni bayon qila olishga ham o‘rgatardi (ta‘kid bizniki – M.H.)*” [8, 66].

E.Vohidov to‘garakni, G‘ayratiy domlaning darslarini yodga olib, yana shunday yozgan edi: “Ustoz G‘ayratiy yettinchi sinf o‘quvchisi bo‘lgan paytimda yozgan bir mashqimni maqtagan edilar:

*Ufq shishasi sindi,
Olam uzra silkindi*

Ulkan oqqush qanoti.

Ufqqa gulxan yozib,

Qizil galstuk taqib,

Pioner tongi otdi...

Lekin boshqa bir she'rimni esa daftaringizda qolsin, degandilar:

Qora qushlar qo'narlar

Majnuntolning shoxiga.

Boshin suvga egarlar

Boqmay sira ohiga.

Rahmi kelib bulutning

Yig'lab to'kar yoshini.

Quyosh chiqar, majnuntol

Ko'taradi boshini.

Bulutning orasidan

Quyosh kulib qaraydi.

Majnuntolning yuvilgan

Sochlarini taraydi.

O'shanda men o'n besh yoshlarda edim. She'r yozilganda ham yillar o'tib 1976-yilda uni "Muhabbat" kitobiga kiritganimda ham shunchaki bir manzara, go'dak tasavvur bilan chizilgan suvrat, deb qaragan edim va bolalikdan xotira sifatida kitobga qo'shgandim. Nima xayol bilan, nima sababdan she'r yozilganini ham, bu jo'ngina misralarning ko'ngilga joylashib qolgani sababini ham tushuntirib aytolmayman. Bugun endi she'riyatning sirli olami to'g'risida o'ylab, inson qalbining ilm-fan kashf etmagan xususiyatlarini ko'ngildan o'tkazib ko'rsam, o'zim anglab yetmagan holda bola tasavvuri bilan vatanim manzarasini chizibman. Domla G'ayratiy, she'ringiz daftarida qolsin, deganda men o'zim anglamay dahshatli haqiqatga ishora qilib qo'yganimni sezgan bo'lsam ajabmas" [9, 209-210].

Boshidan ko'p tashvishlarni o'tkazgan ustoz o'tgan asrning 50-yillarida bir oz bo'lsa-da pessimistik tuyg'ular aks etib turgan majnuntol haqidagi she'r uchun shoir

boshiga balo toshlari yog‘ilishi mumkinligini sezgan va “Bu she‘r daftaringizda qolsin”, degan nasihat qilgan edi.

E.Vohidov butun hayoti davomida ustoz bilan doimiy aloqada yashadi. Ijodi namunalarini ustozga o‘qib berib, uning fikr va maslahatlariga quloq tutdi. Shoir ijodida alohida o‘ringa ega bo‘lgan, asarlardan biri “O‘zbekim” qasidasi bo‘lib, shoirning yaqin do‘sti adabiyotshunos R.Inog‘omov E.Vohidovning shu she‘rning so‘nggi nusxasini ustozni G‘ayratiyga o‘qib bergan kunni shunday eslaydi:

“O‘sha kunlari G‘ayratiy domla ham ijod uyida dam olayotgan ekanlar. Erkin endi tamomila qo‘ldan chiqqan qasidaning to‘la nusxasini birinchi bo‘lib ustoziga o‘qib beradi. Farzandining zafaridan o‘zida yo‘q quvongan otaday ustoz ko‘zlarida qalqib chiqqan yosh bilan: “Barakalla, bolam, zo‘r she‘r bo‘libdi, ilohim boshingiz omon bo‘lsin”, deb alqaydi” [10, 48].

G‘ayratiy shogirdlariga faqat xotiralar aytmay mashhur va havaskor shoirlarning she‘rlarini tahlil qilish bilan birga ularga adabiy-ma‘rifiy mavzularda yozishni tavsiya ham qilar edi. Uning shu turkumdagi ayrim nasihatlarini E.Vohidov xotirasida qolgan va u bu nasihatlariga doim amal qilib yashagan. Mana, ustoz nasihatlarini ayrim namunalar:

– Shoirning yozgani o‘ziga o‘xshaydi, pala-partish odam she‘r yozsa ham pala-partish chiqadi. Shoir bo‘lishni niyat qilsangiz, avvalo o‘zingizni to‘kis tuting, batartib, yaxshi axloq egasi bo‘ling.

– Har inson o‘ziga yarashadigan ishni qilishi kerak. Siz ham o‘zingizga, yoshingizga munosib she‘rlar yozing, shundagina yozganingiz samimiy chiqadi. She‘rni she‘r qiladigan fazilat esa samimiyatdir.

– Boylik va shuhrat ketidan zinhor quvmang. Ular bamisoli itga o‘xshaydi. Quvsang sari qochadi, qochsang sari quvadi...

Ustoz G‘ayratiyning bunday nasihatlarini Erkin Vohidovning shoir bo‘lib shakllanishida qanday ahamiyatga molik bo‘lgan bo‘lsa, inson sifatida shakllanishiga ham shunday xizmat qilgan, desak o‘rinli bo‘ladi.

Xulosa va takliflarni (Conclusion/Recommendations). XX asr o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri E.Vohidov ijodi o‘ziga xosligi va ko‘p qirraligi

bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Uning ijodiyotini qamrab olgan milliylik, odamiylik, falsafiylik, tarixiylik kabi ezgu g'oyalar tamoyili beixtiyor kitobxonni mushohadaga chorlaydi. Hayot haqiqatini murakkabligi va ziddiyatlari bilan namoyon etish, o'tkir ijtimoiy masalalarni dadil ko'tarib chiqish, ma'naviy va jismoniy ruh erkinligini badiiy tasvirlash shoir ijodiyotining asosiy xususiyatlaridan biridir.

Ma'lumki, adabiyot – har bir millat ruhining ko'zgusi. O'z ijodi, o'lmas asarlari bilan o'zbek adabiyotining tom ma'noda ravnoq topishiga sababchi bo'lgan adiblarimiz hayot tajribalaridan anglaymizki, ularning shakllanishida ustozlarining ta'lim va tarbiyasi, tanbeh va tajribasi, g'oyaviy va badiiy yo'lanishlari katta maktab bo'lgan.

Bunga o'zbek adabiyotimizdan ham jahon adabiyotida ham ko'plab misollarni keltirishimiz mumkin. Shunday ekan, O'zbekiston Qahramoni E.Vohidov ham o'z ijod yo'li, uslubi, shakllanish bosqichlarini ustozlari G'ayratiy, Alixonto'ra Sog'uniy, G'afur G'ulom, Mirtemir va Shayxzodalarni o'ziga ustoz deb bilgan. Gyote, Pushkin va Yesenin kabi jahon klassiklarining ijod bulog'idan ta'sirlangan, ilhomlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mamajonov S. G'ayratiy. Adabiy portret. –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1973.
2. Adabiyotimiz avtobiografiyasi. –T., 1973.
3. Abdullaeva D. G'ayratiy sandig'idagi xazina // “Toshkent oqshomi” gazetasi, 1989, 18-noyabr.
4. Qayumov L. Zamondoshlar. Saylanma. –T.: Mumtoz so'z, 2011.
5. Toir Yunus. Insonning tirikligi // Sharq yulduzi. –T., 1993.
6. Yusuf Shomansur. Biz G'ayratiy to'garigidanmiz // “Guliston” jurnali, 1975. - №4
7. Vohidov E. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2019.
8. Vohidov E. Shoiru she'ru shuur: Adabiy esselar. –T.: Yosh gvardiya, 1987.



9. Vohidov E. Saylanma. Erk saodati. 6-jild: maqolalar, bahslar, adabiy o‘ylar.
–T.: Sharq, 2018.
10. Inog‘omov R. Shoirlik qismati. –T.: Universitet, 1999.